



TIJORAT BANKLARIDA DEPOZITLAR TARKIBI VA DINAMIKASI: TAHLILY YONDASHUV (ATB TURONBANK VA TRASTBANK XAB MISOLIDA)

Allaberganov Sirojali Saxatovich

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Sirojali_04.10.1991@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 9

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1120>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

bank tizimi, bank depoziti, bank aktivи, bank krediti, iqtisodiy o'sish.

ANNOTATSİYA

Ushbu maqolada tijorat banklarining depozit siyosatida depozitlar tarkibi va ularning o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi. Tahlil obyekti sifatida O'zbekistondagi ATB "Turonbank" va XAB "Trastbank" tanlangan bo'lib, ularning 2020–2024 yillar oraliq'idagi depozit portfeli tarkibi, segmentlar bo'yicha tuzilmasi va o'sish sur'atlari solishtirma asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada jismoniya yuridik shaxslar depozitlari o'rtafigi nisbat, muddatli va talab qilib olinadigan depozitlar ulushi, shuningdek, valyuta strukturasidagi farqlar asosida resurs bazasining barqarorligi baholanadi. Shuningdek, har ikki bankning marketing strategiyasi, foiz siyosati va innovatsion depozit mahsulotlarining omavvilyigi asosida mijozlar ishonchining shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, depozitlarni diversifikasiyalash va uzoq muddatli omonatlarni ko'paytirish banklar uchun strategik ustuvorlik ekanligi asoslab beriladi. Maqola natijalarini tijorat banklari rahbariyati, moliyaviy tahlilchilar va bank tizimi ishtirokchilari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kirish. Bank tizimida davlat ulushining yuqori bo'lishi moliyaviy sektorning samaradorligini pasaytirishi mumkin, chunki davlat banklari ko'pincha bozor tamoyillaridan ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga yo'naltirilgan qarorlar qabul qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, raqobatbardosh bank tizimi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga va kredit bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi.¹ Davlat banklarining monopol holatda bo'lishi esa kredit ajratish jarayonida noratsional qarorlarni keltirib chiqarishi va xususiy sektorning rivojlanishiga to'siq yaratishi mumkin. Shu boisdan, davlat ulushini kamaytirish orqali bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimini shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Xususiy banklarning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bank tizimiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda kapital bozorining liberallashuvi hamda xususiy sektorning moliyaviy tizimdagagi ishtirokini kengaytirish iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi aniqlangan.² Xususiy banklar bozor talablariga mos xizmatlar taklif qilish va mijozlar segmentatsiyasini kengaytirish orqali bank tizimining barqarorligini oshiradi. Shuningdek, xususiy banklar raqobat muhitida ilg'or texnologiyalar va innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali sektordagi samaradorlikni oshiradi, bu esa bank tizimining umumiy ishonchiligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat ulushining kamaytirilishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kredit bozorining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bank tizimidagi davlat ulushining ortiqcha bo'lishi kreditlar ajratilishida resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin, chunki davlat banklari ko'pincha strategik sohalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi va bu bozorda nosog'lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi.³ Xususiy sektor ishtirokining ortishi esa kredit bozorining diversifikasiyalashuviga, bank xizmatlarning raqobatbardoshligi oshishiga va kapitalning samarali aylanishiga imkon yaratadi. Natijada, bank tizimi moliyaviy stress va iqtisodiy tanglik sharoitlariga tezroq moslashadi, bu esa iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Davlat ulushiga ega bo'lgan banklarda depozit operatsiyalarining ahamiyati iqtisodiy xavfsizlik va ishonchilik bilan bog'liq bo'ladi. Bunday banklar odatda uzoq muddatli barqaror depozit bazasiga ega bo'lub, ularning likvidlik inqirozlariga uchrash ehtimoli past bo'ladi. Shuningdek, ular aholining ishonchiga ega bo'lgani uchun depozitlar oqimi ancha barqaror bo'lib, inqiroz davrlarida ham omonatchilar o'z mablag'larini ushbu banklardan olib ketishga shoshilmaydi. Shu sababli,

davlat banklari depozit siyosatini shakllantirishda kamroq tavakkalchilikka yo'l qo'yib, konservativ yondashuvni tanlaydi.

Xususiy banklarda esa depozit operatsiyalari mijozlarni jalb qilish va bozor raqobatbardoshligini oshirish vositasi hisoblanadi. Ular ko'prod moslashuvchan bo'lib, depozit foiz stavkalarini o'zgaruvchan holatda saqlash, turli bonus va rag'batiantsiruvchi dasturlar orqali mijozlarni jalb qilishga intiladi. Xususiy banklarning depozit siyosati bozor talabiga moslashish orqali shakllantiriladi, ya'ni ular infliyatsiya, markaziy bank siyosati va moliyaviy bozor tendensiyalarini inobatga olgan holda strategiyalar ishlab chiqadi. Natijada, bunday banklar omonatchilar bilan yanada faol ishlaydi va depozit portfelining tezroq o'sishini ta'minlaydi.

Davlat banklari va xususiy banklarning depozit siyosati o'rtafigi farqlarning ilmiy-nazariy asoslarini tushuntirishda moliyaviy ishonch va xavf omillarini hisobga olish zarur. Davlat banklari odatda ishonchli investitsiya vositasi sifatida qaraladi, chunki ularning orqasida hukumat kafolati mavjud. Xususiy banklarda esa tavakkalchilik yuqori bo'lib, depozitlar bozor sharoitlariga bog'liq ravishda keskin o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ham rivojlanayotgan davlatlarda davlat banklari aholining depozit mablag'larini jalb qilishda uzoq muddatli ishonch omiliga tayanadi, xususiy banklar esa qisqa muddatli jozibador shartlar bilan depozit jalb qilishga harakat qiladi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan davlatlarda bank kapitalining tarkibi depozit operatsiyalarining yo'nalishi va strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat ulushiga ega banklar iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli likvidlikni saqlashga qaratilgan bo'lsa, xususiy banklar mijozlarni jalb qilish va depozit portfelini kengaytirish uchun ko'prod innovatsion yondashuvlarni qo'llaydi. Shu sababli, har ikkala turdagiligi banklarda depozit siyosati va operatsiyalarining ahamiyati turlicha namoyon bo'ladi va har birining o'ziga xos moliyaviy strategiyalari mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Banke va Yitayav tomonidan olib borilgan tadqiqotda Efiopiyaning tijorat banklarida depozitlarni mobilizasiya qilish va uning determinantlari o'rganilgan. Mualliflar depozitlar mobilizasiyasining asosiy omillarini aniqlash va ularning bank faoliyatiga bo'lgan ta'sirini baholashga harakat qilishgan. Maqolada, depozitlar mobilizasiyasini taqozo etuvchi omillar sifatida mijozlar bilan ishlashning samaradorligi, bank xizmatlarning sifatini oshirish, iqtisodiy sharoitlar, davlat siyosati va moliyaviy tahlililar hamda makroiqtisodiy shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi — Efiopiyadagi tijorat banklarida depozitlarni mobilizasiya qilishga ta'sir etuvchi

¹ Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. Handbook of Economic Growth, Elsevier.

² La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). *Government Ownership of Banks*. The Journal of Finance, 57(1), 265–301.

³ Megginson, W. L. (2005). *The Economics of Bank Privatization*. Journal of Banking & Finance, 29(8-9), 1931–1980.

omillarni aniqlash va ushbu omillar orqali depozitlar miqdorini oshirish bo'yicha tavsiyalar berishdir. Mualliflar, depozitlar mobilizasiyasini to'g'ri boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashgan.

Tadqiqotda panel regressiya modeli qo'llangan bo'lib, bu model banklarning moliyaviy hisobotlari asosida depozitlar mobilizasiyasini determinantlar bilan bog'lashga yordam bergan. Ma'lumotlar 2010-2019 yillar davomidagi Efiopiya tijorat banklarining moliyaviy natijalariga asoslangan. Natijalarga ko'ra, depozitlar mobilizasiyasining asosiy determinantlari sifatida bankning xizmatlar sifati, mijozlar bilan munosabatlar, kredit stavkalari, iqtisodiy o'sish sur'ati va inflyasiya darajasi aniqlangan. Shuningdek, davlatning moliyaviy siyosatlari va iqtisodiy ham depozitlar mobilizasiyasini yo'lg'a qo'yishda muhim rol o'yaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, to'g'ri bank siyosati, raqobatbardoshlik va xizmatlarning sifatini oshirish depozitlar mobilizasiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Mualliflar, banklar uchun, mijozlar bilan samarali ishslash va tezkor depozit xidmatlarini yaratish orqali, depozitlar miqdorini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar berishgan.⁴

Legass, Shikur va Ahmed tomonidan olib borilgan tadqiqotda Efiopiyaning tijorat banklarida depozit o'sishini belgilovchi omillar o'rganilan. Mualliflar, depozitlar o'sishini ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning banklar faoliyatiga bo'lgan ta'sirini aniqlashga harakat qilishgan. Maqolada, depozitlar o'sishini belgilaydigan determinantlar sifatida mijozlarning ishonchini oshirish, inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish, banklar faoliyatining samaradorligi va moliyaviy barqarorlik omillari o'rganilan. Tadqiqotning maqsadi Efiopiya tijorat banklarida depozit o'sishini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ushbu omillarning banklarning moliyaviy natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishdir. Mualliflar, depozit o'sishini ta'minlash banklar uchun moliyaviy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashda muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda panel regressiya modeli qo'llangan bo'lib, banklarning moliyaviy hisobotlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida depozitlar o'sishini belgilaydigan omillarni tahlil qilishga yordam bergan. Ma'lumotlar 2010-2019 yillar davomidagi Efiopiyaning tijorat banklarining moliyaviy natijalaridan olingan. Natijalarga ko'ra, depozitlar o'sishini belgilaydigan asosiy omillar sifatida inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati, kredit foizlari, banking moliyaviy xizmatlarning sifati va mijozlar bilan ishslashning samaradorligi aniqlangan. Shuningdek, banklar uchun ichki operasiyalarning samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni saqlash orqali depozitlar o'sishini ta'minlashga yordam bergan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, banklar mijozlar bilan ishslashda yaxshi xizmat ko'rsatish va moliyaviy barqarorlikni saqlash orqali depozitlar miqdorini oshirishga muvaffaq bo'lishadi.⁵

Koroleva, Jigeer, Miao va Skhvediani tomonidan olib borilgan tadqiqot, Xitoyning davlatga tegishli tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir etuvchi determinantlarni tahlil qilishga qaratilgan. Mualliflar davlat banklarining moliyaviy natijalarini belgilaydigan asosiy omillarni aniqlash va ularning rentabellikka ta'sirini baholashga harakat qilishgan. Maqolada, davlat banklarining rentabelligini belgilaydigan omillar sifatida iqtisodiy sharoitlar, davlatning moliyaviy siyosatlari, banklar faoliyatining samaradorligi, aktivlarning sifatini va kapital ko'rsatkichlarini muhokama qilishgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Xitoy davlat banklarining rentabelligini oshirishga yordam beradigan asosiy determinantlarni aniqlash va banklar faoliyatining

samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar berishdir. Mualliflar davlatga tegishli banklar uchun rentabellikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim faktorlar haqida xulosa chiqarishgan.

Tadqiqotda panel regressiya modeli va korrelyasiyon tahlillar qo'llangan bo'lib, ular davlatga tegishli banklarining moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga yordam bergan. Ma'lumotlar 2009-2018 yillar davomidagi Xitoyning davlat banklarini moliyaviy hisobotlaridan olingan. Natijalarga ko'ra, davlat banklarining rentabelligini belgilaydigan asosiy omillar sifatida kapital samaradorligi, aktivlar sifati, likvidlik darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati va davlatning moliyaviy siyosati aniqlangan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik va davlatning banklar faoliyatiga ta'sirini kuchaytirish rentabellikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat banklari uchun ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni oshirishning muhim ahamiyati bor, va bu olib kelgan tavsiyalar moliyaviy strategiyalarni to'g'ri ishlab chiqish va banklarning rentabelligini oshirishga yordam berishi mumkin.⁶

Farkasdi, Septiawan va Alghifari tomonidan olib borilgan tadqiqot Germaniyadagi tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Mualliflar Germaniya banklarining moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi asosiy determinantlarni aniqlash va bank faoliyatining samaradorligini belgilaydigan omillarni muhokama qilishgan. Maqolada banklarning rentabelligiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida makroiqtisodiy sharoitlar, likvidlik, kapital adekvatligi, kredit siyosati va ichki operasiyalarning samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi — Germaniya tijorat banklarining rentabelligini oshirish uchun muhim omillarni aniqlash va bu omillarning rentabellikka bo'lgan ta'sirini baholashdir. Mualliflar banklar rentabelligini oshirish uchun mamlakatdagi iqtisodiy sharoitlar va banklarning ichki boshqaruva samaradorligini to'g'ri tarzda boshqarishning ahamiyatiga e'tibor qaratgan.

Tadqiqotda panel regressiya modeli va korrelyasiyon tahlillar qo'llangan bo'lib, ular Germaniya banklarining moliyaviy natijalarini belgilaydigan omillarni aniqlashga yordam bergan. Ma'lumotlar 2010-2019 yillar davomidagi Germaniyaning tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida yig'ilgan. Natijalarga ko'ra, rentabellikka asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida likvidlik darajasi, kapital adekvatligi, inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish va kredit siyosatining samaradorligi aniqlangan. Shuningdek, banking ichki boshqaruva tizimi, operasiyalarning samaradorligi va resurslardan foydalaniш darajasi ham rentabellikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, banklar uchun iqtisodiy barqarorlik va samarali boshqaruva tizimini o'rnatish rentabellikni oshirishga yordam beradi.⁷

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanan. Shuningdek, tijorat bankari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.


Tadqiqot natijalari. Rivojlanayotgan davlatlarda bank sektorining rivojlanish darajasi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri kapitalida davlat ulushining mavjudligi yoki yo'qligidir. Davlat ulushiga ega bo'lgan banklar odatda barqarorlik nuqtayi nazaridan kuchliroq hisoblanadi, chunki ular hukumat kafolati va qo'llab-quvvatloviga ega bo'ladi. Biroq, bunday banklar ko'pincha xususiy banklarga qaraganda depozit siyosatini shakllantirishda anche konservativ yondashadi. Davlat banklari asosan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, xususiy banklar esa depozitlar hajmini oshirish orqali bozor ulushini kengaytirishga intildi.

⁴ Banke, N. K., & Yitayaw, M. K. (2022). Deposit mobilization and its determinants: evidence from commercial banks in Ethiopia. *Future Business Journal*, 8(1), 32.

⁵ Legass, H. A., Shikur, A. A., & Ahmed, O. M. (2021). Determinants of commercial banks deposit growth evidence from ethiopian commercial banks. *Journal of Finance and Accounting*, 9(6), 207-215.

⁶ Koroleva, E., Jigeer, S., Miao, A., & Skhvediani, A. (2021). Determinants affecting profitability of state-owned commercial banks: Case study of China. *Risks*, 9(8), 150.

⁷ Farkasdi, S., Septiawan, B., & Alghifari, E. S. (2021). Determinants of commercial banks profitability: Evidence from germany. *JRAK*, 13(2), 82-88.



1-rasm. ATB Turonbank asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁸ (mlrd. so'mda).

Turonbankning 2020-2025 yillar oraliq'idagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi grafikni tahlil qilish natijasida bankning barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligi kuzatiladi. Grafikda aktivlari, majburiyatlar, kapital, kreditlar va depozitlar hajmining yildan yilga ortib borayotgani aniq ko'rsatilgan. Ayniqsa, aktivlari va majburiyatlar bo'yicha o'sish sur'ati yuqori ekani e'tiborni tortadi.


Birinchi navbatda, Turonbank aktivlari 2020-yilda 5 978,87 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 17 585,25 mlrd so'mga yetgan. Bu esa bankning o'sish sur'ati juda yuqori ekanligini hamda uning moliyaviy barqarorligi oshib borayotganini anglatadi. Aktivlarning oshishi bankning yangi investitsiyalar jalb qilishi va kredit portfeli kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, majburiyatlar ham sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda 4 888,28 mlrd so'mni tashkil qilgan majburiyatlar 2025-yilda 15 666,36 mlrd so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich bankning mijozlari oldidagi majburiatlari va moliyaviy bozor bilan aloqlarining kuchayganligini

ko'rsatadi. Majburiyatlarning ko'payishi odatda depozitlar va boshqa moliyaviy manbalar hisobiga yuzaga keladi.

Kapitalning o'sish dinamikasi esa nisbatan sekinroq kechmoqda. 2020-yilda 1 090,59 mlrd so'm bo'lgan bank kapitali 2025-yilda 1 918,89 mlrd so'mga yetgan. Bu esa bankning o'z mablag'larini ko'paytirish sur'ati majburiyatlarga nisbatan pastroq ekanligini bildiradi. Biroq, kapital hajmining oshishi bankning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Nihoyat, kredit va depozitlar ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Kredit hajmi 2020-yilda 4 263,71 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 12 557,53 mlrd so'mga yetgan. Depozitlar esa 2020-yildagi 1 652,82 mlrd so'mdan 2025-yilda 5 486,19 mlrd so'mga oshgan. Bu esa bank mijozlari ishonchining ortib borayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, grafikdan Turonbankning barqaror rivojlanayotganligi va moliyaviy salohiyatining ortib borayotganligini anglash mumkin.



2-rasm. Trastbank XAB asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁹ (mlrd. so'mda).

XAB Trastbankning 2020-2025 yillar oraliq'idagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari aks ettirilgan grafikdan ko'rinish turibdiki, bankning barcha asosiy moliyaviy indikatorlari barqaror o'sish tendensiyasiga

ega. Ayniqsa, aktivlari va majburiyatlarning dinamikasi bankning umumiy moliyaviy salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiiytasi www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiiytasi www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.


bilan birga, depozitlar va kreditlar hajmining yil sayin oshib borishi bank mijozlari va investorlar orasida ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi.

Birinchi navbatda, bank aktivlari 2020-yilda 3 317,12 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 10 867,59 mlrd so'mga yetgan. Aktivlarning uch barobarga yaqin oshishi bankning operatsion samaradorligi va bozor ulushining kengayganini bildiradi. Aktivlarning o'sishi, asosan, kreditlar va depozitlar hajmining oshishi, shuningdek, bankning investitsion faoliyati kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu bank majburiyatları ham shu davr mobaynida sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda 2 798,78 mlrd so'mni tashkil etgan majburiyatlar 2025-yilga kelib 7 947,71 mlrd so'mga yetgan. Majburiyatlarning ortishi, asosan, bank tomonidan jalb qilingan depozitlar va boshqa qarz majburiyatları hisobiga yuzaga kelgan. Bu holat bankning iqtisodiy muhitdagagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini va moliyaviy manbalar jalb qilish salohiyatini oshirganini bildiradi.

Bank kapitali ham sezilarli darajada oshgan bo'lib, 2020-yilda 518,34 mlrd so'm bo'lsa, 2025-yilga kelib 2 919,88 mlrd so'mga yetgan. Kapital hajmining oshishi bankning barqarorligini oshiradi va unga kredit portfelini yanada kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Kapitalning o'sish sur'ati majburiyatlarga nisbatan sekinroq bo'lsa-da, bu bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasini qo'llayotganini anglatadi.


Nihoyat, kredit va depozit operatsiyalarining o'sish tendensiyasi bankning bozor ishtirokchilari bilan mustahkam aloqaga ega ekanligini ko'rsatadi. Kredit hajmi 2020-yildagi 1 737,20 mlrd so'mdan 2025-yilda 5 705,50 mlrd so'mga oshgan bo'lsa, depozitlar 2 652,20 mlrd so'mdan 7 421,33 mlrd so'mga yetgan. Bu esa bankning kreditlash imkoniyatlari kengayganini va omonatchilar orasida ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, XAB Trastbankning moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etib, uning uzoq muddatli strategiyasi muvaffaqiyatlari amalga oshirilayotganini bildiradi.



3-rasm. ATB Turonbank balans passivining holati¹⁰

Grafikdan ko'rrib turibdiki, ATB Turonbankning depozitlari, kapitali va boshqa majburiyatları yildan yilga o'sib bormoqda. 2020-

Kapitalga kelsak, 2020-yilda 1 090,6 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 1 918,9 mlrd so'mga yetgan. Kapitalning



yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda bank depozitlari 1 652,8 mlrd so'mdan 5 486,2 mlrd so'mga yetgan, ya'ni taxminan uch barobarga oshgan. Bu esa bankning mijozlar orasida ishonchi ortganini va omonatchilar tomonidan kapital qo'yilmalar hajmi kengayganini anglatadi. Depozitlarning ortishi bankning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan birga, uning likvidlilik darajasini ham oshiradi.

Bankning boshqa majburiyatları ham sezilarli darajada ortib borgan bo'lib, 2020-yildagi 3 235,5 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 10 180,2 mlrd so'mga yetgan. Bu bankning moliyaviy majburiyatları ortib borayotganini, shu bilan birga, investorlar va kreditorlar tomonidan jalb qilinayotgan mablag'larning ham ko'payganini ko'rsatadi. Mazkur holat bankning bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshligini oshirishiga xizmat qiladi.

o'sish sur'ati boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan sustroq bo'lsa-da, uning barqaror o'sishi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, grafik bankning faoliyati izchil rivojlanayotganini, depozit bazasi mustahkmalayotganini va bank tomonidan jalb qilinayotgan mablag'larning hajmi ortayotganini ko'rsatmoqda.

Quyidagi grafikdan ko'rrib turibdiki, XAB Trastbankning asosiy mablag' manbai mijozlarning depozitlari bo'lib, ularning umumiy ulushi yillar davomida sezilarli darajada ortgan. 2020-yilda depozitlar 2 652,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 7 421,3 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni 2,8 baravarga oshgan. Bu bankning mijozlar orasida ishonch qozonayotganini va depozit jalb qilish borasida samarali siyosat yuritayotganini ko'rsatadi. Depozitlarning umumiy mablag'lardagi ulushi har doim 65% dan yuqori bo'lib kelgan, bu esa bankning barqarorlik strategiyasiga muvofiq keladi.

4-rasm. Trastbank XAB balans passivining holati¹¹

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi.



5-rasm. ATB Turonbank depozitlarining bank faoliyatidagi o'rni¹²

Bankning boshqa majburiyatları esa depozitlarga nisbatan ancha kichik ulushni tashkil etmoqda. Masalan, 2020-yilda ular 146,6 mlrd. so'm bo'lsa, 2025-yilga kelib 526,4 mlrd. so'mga yetgan. Lekin bu o'sish bank mablag'lari tarkibida katta o'zgarish qilmagan, ya'ni boshqa majburiyatlarning umumiyligi ulushi 3-5% atrofida qolgan. Bu esa bankning asosan ichki mablag'larga tayanayotganini va tashqi qarz majburiyatlaridan minimal darajada foydalanayotganini ko'rsatadi. Bunday strategiya bankni iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan barqaror qiladi.


Kapital ko'rsatkichi ham yillarda davomida sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda kapital 518,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 2 919,9 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni 5,6 baravarga o'sgan. Kapitalning umumiyligi ulushi ham oshib, 2020-yilda 15% atrofida bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 25-30% oralig'ida bo'lishi kuzatilmoqda. Bu bankning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasi bo'lib, uning kelajakdagisi rivojlanish salohiyatini kuchaytiradi.

ATB Turonbankning depozitlari umumiy aktivlar, majburiyatlar va kreditlarga nisbatan qanday o'zgarib borayotganini ko'rsatuvchi quyidagi grafik bankning moliyaviy barqarorligi va likvidlik darajasi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Grafikdagi ko'rsatkichlarga ko'ra, 2020-yilda bankning depozitlari aktivlarga nisbatan 27,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 24,3% gacha kamaygan, keyinchalik esa asta-sekin o'sib, 2025-yilda 31,2% ga yetgan. Bu shuni anglatadiki, bank o'z aktivlarini moliyalashtirishda depozitlardan foydalanish ulushini biroz oshirgan, lekin bu hali ham past darajada qolmoqda. Depozitlarning aktivlardagi ulushi qancha yuqori bo'lsa,

bankning tashqi qarzlarga kamroq bog'liq bo'lishi va barqaror moliyaviy manbagasi ega bo'lishi ta'minlanadi.

Bank majburiyatlarining qanchalik qismi depozitlar bilan ta'minlanayotganiga e'tibor qarataksak, 2020-yilda bu ulush 33,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 28,2% gacha kamaygan. So'ngra, keyingi yillarda asta-sekin ortib, 2025-yilda 35,0% ga yetgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ATB Turonbank o'z majburiyatlarini bajarishda asosan depozitlardan emas, balki boshqa moliyaviy manbalardan foydalanmoqda. Agar bank majburiyatlarining katta qismi tashqi qarzlar yoki boshqa qisqa muddatlari moliyaviy manbalar hisobidan moliyalashtirilsa, bu uning likvidlik xavfini oshirishi mumkin. Depozitlar bank uchun barqaror va nisbatan uzoq muddatlari resurs bo'lsa, tashqi majburiyatlar yuqori foiz stavkasi va muddat chekllovleri tufayli bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Eng muhim jihatlardan biri – depozitlarning kreditlarga nisbati. Grafikda ko'rinib turibdiki, 2020-yilda bankning kreditlari depozitlar bilan 38,8% ta'minlangan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 31,7% gacha kamaygan. Keyingi yillarda esa o'sish kuzatilib, 2025-yilda 43,7% ga yetgan. Bu shuni anglatadiki, bank o'z kredit portfelini ko'proq depozitlar hisobidan moliyalashtirishga intilgan, lekin bu ko'rsatkich hali ham nisbatan past darajada. Agar kreditlarning katta qismi depozitlar emas, balki boshqa qisqa muddatlari moliyaviy manbalar hisobidan ta'minlansa, bu likvidlik riskini oshiradi. Chunki tashqi moliyalashtirish manbalari o'zgaruvchan foiz stavkalari va muddat chekllovleri sababli bankning majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



6-rasm. XAB Trastbank depozitlarining bank faoliyatidagi o'rni¹³

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.


¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.

XAB Trastbankning depozitlar bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lib, bu bankning barqaror moliyalashtirish manbalariga tayanayotganini ko'rsatadi. Quyidagi grafikdan ko'rinish turibdiki, bankning depozitlarining aktivlarga nisbati 2020-yilda 80,0% ni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda asta-sekin pasayib, 2025-yilda 68,3% ga tushgan. Bu kamayish tendensiyasiga qaramay, bankning aktivlari tarkibida depozitlarning katta ulushga ega ekanligi moliyaviy mustaqillikni oshirish va tashqi qarzlardan kamroq foydalishim imkonini beradi. Depozitlarning aktivlardagi yuqori ulushi bankning o'z mijozlari tomonidan jalb qilingan mablag'lari hisobiga faoliyat yuritayotganini anglatadi, bu esa likvidlik xavfini kamaytiradi.

Shuningdek, bankning majburiyatlarining qanday qismi depozitlar bilan ta'minlanayotganiga e'tibor qarataks, ushbu ko'rsatkich deyarli barqaror darajada saqlanib qolgan. 2020-yilda bu ulush 94,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 93,4% darajasida qolgan. Bu shuni anglatadiki,

XAB Trastbank tashqi qarz jalb qilishga ehtiyoj sezmay, o'zining asosiy majburiyatlarini mijozlarning depozitlari hisobidan qoplay olmoqda. Majburiyatlarining depozitlar bilan ta'minlanganligi yuqori bo'lgani sababli, bank likvidlik muammolariga duch kelish ehtimolini kamaytiradi va foiz stavkalarining o'zgarishi yoki tashqi moliyaviy bozorlardagi noaniqliklardan kamroq ta'sirlanadi.

Grafikdagi eng e'tiborga molik ko'rsatkich – bu kreditlarning depozitlar bilan ta'minlanganligi darajasi. 2020-yilda bank kreditlarining 152,7% qismi depozitlar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 198,5% gacha o'sib, keyinchalik pasayib, 2025-yilda 130,1% ni tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, bank o'z kredit siyosatini asosan mijozlarning omonatlari hisobidan yuritmoqda va tashqi mablag'larga kamroq bog'liq. Kreditlarning depozitlar bilan yuqori ta'minlanganligi bank uchun ijobiy holat bo'lib, bu uning kreditlash faoliyatini barqaror resurslar asosida olib borishiga imkon yaratadi.




7-rasm. ATB Turonbank depozitlarning sub'ektiga ko'ra taqsimoti¹⁴ (mlrd so'mda).

Grafikdan ko'rinish turibdiki, ATB Turonbankdagi depozitlarning asosiy qismini yuridik shaxslar depozitlari tashkil etadi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, jismoniy shaxslarning omonatlari taxminan 35-40% atrofida bo'lsa, yuridik shaxslarning omonatlari umumiy depozitlarning 60-65% ni tashkil qilgan. Keyingi yillarda ham bu nisbat deyarli o'zgarmay, yuridik shaxslar omonatlari ustunlik qilgan. 2025-yilga kelib, jismoniy shaxslarning omonatlari nisbatan biroz ortgan bo'lsa-da, umumiyligi balansda ularning ulushi 40% dan oshmagani. Bu holat bankning asosan yirik mijozlar – kompaniyalar va tashkilotlar bilan ishlashga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Biroq, yillar davomida jismoniy shaxslarning depozitlari ulushi biroz ortib borayotgani kuzatilmoqda. 2022-yildan boshlab, bu ko'rsatkich 1-2% ga oshib borib, 2025-yilga kelib 40% ga yaqinlashgan. Bu esa aholi orasida bank xizmatlariga bo'lgan ishonch oshayotganini

anglatadi. Jismoniy shaxslarning depozitlari odatda qisqa va o'rta muddatli bo'lishi sababli, bu bank uchun qisqa muddatli likvidlikni oshirish imkonini beradi. Shu sababli, bankning kelajak strategiyasida jismoniy shaxslar omonatlarini jalb qilish muhim yo'nalish bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslarning omonatlari esa 2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda deyarli o'zgarishsiz qolgan, taxminan 60-65% atrofida bo'lib, bu bankning yirik mijozlar bilan ishlashga yo'naltirilgan strategiyasini tasdiqlaydi. Bunday mijozlar odatda uzoq muddatli va barqaror depozitlarni bankda saqlashadi, bu esa bankning barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim amaliyat kasb etadi. Yuridik shaxslar depozitlarning yuqori ulushi bankning likvidlik darajasini ham yaxshilaydi, chunki kompaniyalar odatda katta muddatli mablag'lari uzoq muddatga joylashtiradi.



8-rasm. XAB Trastbank depozitlarning sub'ektiga ko'ra taqsimoti¹⁵ (mlrd so'mda).

Grafikdan ko'rinish turibdiki, XAB Trastbankdagi depozitlarning asosiy qismini yuridik shaxslar omonatlari tashkil etmoqda. 2021-yil 1-

yanvar holatiga ko'ra, jismoniy shaxslarning depozitlari umumiy depozitlarning taxminan 20-25% ini tashkil qilgan bo'lsa, yuridik


¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi.

shaxslarning omonatlari esa 75-80% ni tashkil qilgan. 2022-yildan boshlab, jismoniy shaxslarning omonatlari ulushi asta-sekin oshib borgan va 2023-yilda 25-30% oralig'iga yetgan. 2024-2025-yillarga kelib, bu ko'rsatkich 30% dan oshib, aholi omonatlarining ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

Quyidagi grafikdan ko'rinish turibdiki, ATB Turonbankda jismoniy shaxslarning depozitlari yildan-yilga sezilarli o'sish tendensiyasiga ega.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankdagi aholi omonatlari hajmi 782,2 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 1 124,6 mlrd so'mga yetib, 43,8% ga o'sgan. Aholi tomonidan bankka ishonch ortib borayotgani depozitlarning barqaror o'sishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa bankning resurs bazasini mustahkamlash va kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.




9-rasm. ATB Turonbankda jismoniy shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁶

2023-yilga kelib, jismoniy shaxslarning omonatlari 1 281,6 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, o'sish surʼati sezilarli darajada pasaygan. Ya'ni, 2022-yildagi 43,8% lik o'sish 2023-yilda 14,0% ga tushgan. Bu esa aholi depozitlarning oshish tezligi sekinlashayotganidan dalolat beradi. Ushbu tendensiya iqtisodiy omillar, aholi daromadlarining o'zgarishi yoki boshqa investitsiya imkoniyatlarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2024-yilda esa jismoniy shaxslarning omonatlari yana o'sib, 1 628,1 mlrd so'mga yetgan va o'tgan yilga nisbatan 27,0% o'sish qayd etilgan. Bu o'sish ko'rsatkichi 2023-yildagiga qaraganda yuqori bo'lib,

aholi omonatlariga bo'lgan ishonch qayta mustahkamlanganini bildiradi. Bu holat bankning mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi, depozit foiz stavkalarining raqobatbardoshligi va bank tizimining barqarorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Eng e'tiborga molik o'zgarish esa 2025-yilga kelib kuzatilgan. Bankdagi jismoniy shaxslarning omonatlari hajmi 2 039,7 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 25,3% ga oshgan. 2021-yil bilan solishtirganda, ushbu depozitlar 2,6 barobarga ko'paygan. Bu esa bankning resurs bazasi mustahkamlanayotganini va aholi tomonidan omonatlarga bo'lgan talab yuqoriligini tasdiqlaydi.



10-rasm. ATB Turonbankda yuridik shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁷

Grafikdan ko'rinish turibdiki, ATB Turonbankda yuridik shaxslarning depozitlari yildan-yilga ortib bormoqda. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankdagi yuridik shaxslar depozitlari 1 334,2 mlrd so'mni

tashkil qilgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 1 713,1 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 28,4% ga o'sgan. Bu kompaniyalar va

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansmasi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansmasi.


tashkilotlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda yuridik shaxslar tomonidan qo'yilgan depozitlar hajmi 2 211,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 29,1% ga o'sish demakdir. Ushbu ko'rsatkich 2021-yildagi o'sishdan biroz yuqoriqoq bo'lib, yuridik shaxslarning bank depozitlariga bo'lgan qiziqishi barqarorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu kompaniyalar o'z mablag'lарини saqlash va ko'paytirish uchun aynan ATB Turonbankni afzal ko'rayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda yuridik shaxslar depozitlari hajmi sezilarli darajada oshib, 3 033,5 mlrd so'mga yetgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 37,2% lik o'sishni ko'rsatadi. Ushbu natija avvalgi yillardagi o'sish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib, bankning yuridik shaxslar bilan ishslash strategiyasi muvaffaqiyatlari ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, bu

Biroq, 2025-yilga kelib, yuridik shaxslar tomonidan bankka qo'yilgan depozitlar hajmi 3 446,5 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, o'sish sur'ati 13,6% ga pasaygan. Bu avvalgi yillardagi o'sish sur'atlari qaraganda ancha past ko'rsatkich hisoblanadi. Bu pasayishning sabablari iqtisodiy vaziyat, yuridik shaxslarning likvidlik ehtiyojlar yoki boshqa investitsiya imkoniyatlari e'tibor qaratayotganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Quyidagi grafikdan ko'rilib turibdiki, XAB Trastbankda jismoniy shaxslarning depozitlari yillar davomida o'zgaruvchan dinamika bilan o'sib bormoqda. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankdagi jismoniy shaxslar depozitlari 574,8 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 816,0 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 42,0% ga o'sdi. Bu jismoniy shaxslarning bankka bo'lgan ishonchi ortganidan va omonatlarning jozibadorligidan dalolat beradi.



davrda bank tomonidan korporativ mijozlar uchun qulay shartlar va xizmatlar taklif etilgan bo'lishi mumkin.

11-rasm. XAB Trastbankda jismoniy shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁸

Biroq, 2023-yilda kutilmagan pasayish kuzatilgan. Jismoniy shaxslarning depozitlari hajmi 805,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan -1,4% ga kamaygan. Bu pasayishning sabablari iqtisodiy muhit, foiz stavkalarini yoki boshqa investitsiya variantlarining jozibadorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, inflyatsiya yoki moliyaviy bozorlar beqarorligi ham omonat hajmiga ta'sir qilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

2024-yilda esa keskin o'sish qayd etilgan. Jismoniy shaxslarning depozitlari hajmi 1 538,4 mlrd so'mga yetib, oldingi yilga nisbatan 91,1% lik katta o'sish kuzatilgan. Bu yilgi keskin o'sish bank tomonidan joriy etilgan yangi depozit siyosati, foiz stavkalarining oshirilishi yoki mijozlar uchun yanada qulay shartlar yaratilgani bilan izohlanishi mumkin.

2025-yilda depozit hajmi yana ortib, 2 232,8 mlrd so'mni tashkil qilgan. Biroq, o'sish sur'ati 45,1% ga pasaygan, ya'ni avvalgi yilga nisbatan o'sish sekinlashgan. Bu sekinlashish, ehtimol, mijozlarning muqobil investitsiya variantlariga e'tibor qaratishi yoki bank sektorida raqobat kuchayishi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.



12-rasm. XAB Trastbankda yuridik shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁹

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, XAB Trastbankda yuridik shaxslarning depozitlari 2021–2025-yillarda oralig'ida o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lgan. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yuridik shaxslarning bankdag'i depozitlari 3 097,4 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich keskin o'sib, 4 631,5 mlrd so'mga yetgan va oldindi yilga nisbatan 49,5% lik o'sish kuzatilgan. Bu jarayon biznes subyektlarining bank xizmatlariga bo'lgan ishonchi ortgani yoki iqtisodiy faoliyat oshgani bilan izohlanishi mumkin.

2023-yilda ham yuridik shaxslar depozitlari hajmi o'sishda davom etgan va 5 488,4 mlrd so'mga yetgan. Biroq, o'sish sur'ati sezulari darajada pasayib, atigi 18,5% ni tashkil qilgan. Bu shuni ko'rsatadi, 2022-yildagi keskin o'sishdan so'ng, depozit qo'yish hajmi nisbatan sekinlashgan. Sabablari orasida iqtisodiy barqarorlik, bank foiz stavkalarining o'zgarishi yoki yuridik shaxslarning likvidlikka ehtiyoji ortgan bo'lishi mumkin.

2024-yilda esa bankdag'i yuridik shaxslar depozitlari 5 204,6 mlrd so'mga kamaygan. Bu esa oldindi yilga nisbatan -5,2% lik pasayishni anglatadi. Mazkur pasayishning sabablari yuridik shaxslarning depozitlarni boshqa investitsion yo'naliatlarga yo'naltirishi, bank xizmatlarining raqobatbardoshligi yoki iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2025-yilda esa yuridik shaxslarning depozitlari nisbatan barqarorlashgan. Ko'rsatkich 5 188,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz (-0,3%) qoldi. Bu bankdag'i yuridik shaxslarning depozit siyosati nisbatan barqaror darajaga yetganini, lekin sezilarli o'sish kuzatilmaganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalariga ko'ra, XAB Trastbank davlat ulushiga ega bo'Imagan tijorat banki sifatida o'zining asosiy mablag'lari depozitlari hisobidan shakllantirgan. XAB Trastbank uchun 2020-yilda depozitlar umumiyligi balans passivining 79,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 70,1% gacha pasaygan. Bunga sabab, bank kapitalining va boshqa majburiyatlarining oshgani, ya'ni balans tarkibida muvozanatni saqlash strategiyasi amalga oshirilganidir. Shunga qaramay, 2025-yilda ham Trastbankning asosiy mablag' manbai mijozlar depozitlari bo'lib qolmoqda. Demak, Trastbank mijozlarning ishonchini qozonish va depozit jalb qilish borasida barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. Ayniqsa, davlat ulushiga ega bo'Imagan bank sifatida bu kabi natijalarga erishish, banking mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratgani va ishonchni mustahkamlash strategiyasining samaradorligini ko'rsatadi.

ATB Turonbankning umumiy balans passividagi depozitlar ulushi esa Trastbanknikiga nisbatan ancha past darajada. 2020-yilda bu ulush 30,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 31,9% gacha oshgan, ya'ni sezilarli o'sish kuzatilmagan. Boshqa tomonidan, bankning asosiy mablag' manbai depozitlardan ko'ra boshqa majburiyatlar bo'lib, 2025-yilga bu ulush 65,6% ni tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, Turonbank asosan tashqi qarz va boshqa moliyaviy majburiyatlar hisobidan o'sishga erishmoqda. Natijada, Trastbankning depozit siyosati afzalroq bo'lib, u mijozlar ishonchini jalb qilish orqali mustahkam moliyaviy poydevor yaratgan. Bu esa uzoq muddatda bank likvidligini ta'minlash va mustaqil moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan katta ustunlik beradi.

Shahillarga ko'ra, ATB Turonbankning depozitlar bilan ta'minlanish darajasi so'nggi yillarda biroz oshgan bo'lsa-da, banking kreditlari va majburiyatlar hali ham asosan boshqa moliyaviy manbalar hisobidan qoplanmoqda. Bu esa likvidlik xavfi va banking mustaqil moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bank uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun depozitlarni ko'proq jalb qilish va kreditlash faoliyatini ko'proq ichki mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga intilishi lozim. Aks holda, tashqi manbalarga qaramlik yuqoriligi bankni iqtisodiy noaniqliklarga nisbatan himoyasiz qiladi.

Shuningdek, XAB Trastbankning kredit portfeli depozitlar hisobidan yetarlicha ta'minlangan bo'lib, bu bank uchun ijobiy jihat

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. Handbook of Economic Growth, Elsevier.
- La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). *Government Ownership of Banks*. The Journal of Finance, 57(1), 265–301.

sanaladi. Bunday model bankning mustaqilligini oshirib, foiz stavkalari va tashqi bozorlardagi o'zgarishlarga nisbatan kamroq ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi. Shu bilan birga, depozitlari bilan yaxshi ta'minlangan bank mijozlar uchun ishonchliroq ko'rinadi, chunki u o'z mijozlarining jamg'armalariga asoslangan kreditlash tizimi yuritmoqda. Bu esa bankning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlab, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

ATB Turonbankdag'i depozitlar tarkibi korporativ mijozlar ustunligini ko'rsatadi, bu esa bankning yirik biznes subyektlari bilan ishshaj tajribasiga va barqaror daromad manbalariga ega ekanligiga dalolat qiladi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning omonatlari ulushining asta-sekin oshib borayotgani bankning ommaviy mijozlarga ham e'tibor qaratayotganini bildiradi. Bu kelajakda banking mijozlar bazasini diversifikatsiya qilish, barqarorlikni oshirish va yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratish uchun muhim omil bo'lishi mumkin.

XAB Trastbank depozitlarning sub'ektiga ko'ra taqsimoti tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, bank diversifikatsiyalangan mijozlar bazasiga ega bo'layotganini bildiradi. Yuridik shaxslarning depozitlari hali ham asosiy ulushni tashkil etsa-da, jismoniy shaxslarning omonatlari ortib borayotgani bankning likvidlik darajasini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lishi mumkin. Aholi tomonidan bankka bo'lgan ishonch ortgani tufayli uzoq muddatli jamg'arma omonatlari hajmining o'sishi kuzatilmoxda. Jismoniy shaxslarning omonatlari odatda barqaror bo'lib, bank uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Aholi depozitlari ulushining oshishi banking uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o'rinni tutadi. Bu holat bankka korporativ mijozlardan mustaqil ravishda, barqaror pul oqimlarini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, jismoniy shaxslarning depozitlari orqali jalb qilingan mablag'lari kreditlash faoliyatini kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu esa iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, kichik va o'rta bizneslar hamda aholi uchun ko'proq moliyaviy xizmatlarni taklif qilish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, banking aholi omonatlari oshirishga qaratilgan strategiyasi kelajakda yanada samarali natijalar berishi kutiladi.

Xulosa shundan iboratki, ATB Turonbankdag'i jismoniy shaxslar depozitlari yillar davomida izchil o'sib bormoqda. O'sish sur'atlari yilmayil o'zgarib turgan bo'lsa-da, umumiyligi tendensiya ijobiyligicha qolmoqda. Bu holat banking aholi bilan ishshaj strategiyasi, ishonchli xizmatlari va mijozlarga qulay depozit shartlari taqdirm etayotganining yaqqol isbotidir. Ushbu omillar kelajakda banking yanada barqaror va raqobatbardosh bo'lishi xizmat qiladi.

Shuningdek, ATB Turonbankda yuridik shaxslar depozitlarning hajmi 2021–2024-yillarda davomida izchil o'sib borgan. 2021-yildan 2025-yilgacha depozitlar hajmi 2,6 barobarga oshgan va 208,3% ga ko'paygan. Bu esa bank tizimining ishonchligini, yuridik shaxslar tomonidan omonatlarga bo'lgan talabning ortib borayotganini va banking biznes sektor bilan samarali hamkorlik olib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda o'sish sur'atining pasaygani kelajakda bank tomonidan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatishi mumkin.

2021–2024-yillarda oralig'ida XAB Trastbankda jismoniy shaxslarning depozitlari umumiyligi hisobda 3,9 barobarga oshgan va 276,9% lik o'sish kuzatilgan. 2023-yilda qisqa muddatli pasayish bo'lishi xaramay, keyingi yillarda depozitlar hajmi barqaror o'sishda davom etgan. Kelajakda bank ushbu o'sish sur'atini saqlab qolish uchun mijozlarga yanada jozibador depozit mahsulotlarini taqdim etishi lozim.

Umuman olganda, XAB Trastbankda yuridik shaxslarning depozitlari 2021–2024-yillarda oralig'ida umumiyligi hisobda 162,6% ga oshgan. Biroq, 2023-yildan boshlab depozitlarning yillik o'sish sur'ati pasayib, hatto kamayish kuzatilgan. Kelajakda bank depozitlar hajmini oshirish uchun yuridik shaxslar uchun yanada jozibador shart-sharoitlar yaratishi lozim bo'lishi mumkin.

3. Banke, N. K., & Yitayaw, M. K. (2022). Deposit mobilization and its determinants: evidence from commercial banks in Ethiopia. *Future Business Journal*, 8(1), 32.

4. Legass, H. A., Shikur, A. A., & Ahmed, O. M. (2021). Determinants of commercial banks deposit growth evidence from

- ethiopian commercial banks. *Journal of Finance and Accounting*, 9(6), 207-215.
5. Koroleva, E., Jigeer, S., Miao, A., & Skhvediani, A. (2021). Determinants affecting profitability of state-owned commercial banks: Case study of China. *Risks*, 9(8), 150.
 6. Megginson, W. L. (2005). *The Economics of Bank Privatization*. Journal of Banking & Finance, 29(8-9), 1931-1980.
 7. Yuan, D., Gazi, M. A. I., Harymawan, I., Dhar, B. K., & Hossain, A. I. (2022). Profitability determining factors of banking sector: Panel data analysis of commercial banks in South Asian countries. *Frontiers in psychology*, 13, 1000412.
 8. Al Zaidanin, J. S., & Al Zaidanin, O. J. (2021). The impact of credit risk management on the financial performance of United Arab Emirates commercial banks. *International Journal of Research in Business and Social Science* (2147-4478), 10(3), 303-319.
 9. Dong, J., Yin, L., Liu, X., Hu, M., Li, X., & Liu, L. (2020). Impact of internet finance on the performance of commercial banks in China. *International Review of Financial Analysis*, 72, 101579.
 10. Megginson, W. L. (2005). *The Economics of Bank Privatization*. Journal of Banking & Finance, 29(8-9), 1931-1980.
 11. Farkasdi, S., Septiawan, B., & Alghifari, E. S. (2021). Determinants of commercial banks profitability: Evidence from germany. *JRAK*, 13(2), 82-88.
 12. Ahamed, F. (2021). Determinants of liquidity risk in the commercial banks in Bangladesh. *European Journal of Business and Management Research*, 6(1), 164-169.